

15-dars (14-mavzu). Tabiat hodisalari

Dars maqsadlari:

1. **Ta'limiy:** o'quvchilarda tabiat hodisalari haqida bilimlarni shakllantirish; mustaqil javoblarni shakllantirish malakalari.
2. **Tarbiyaviy:** o'quvchilarda bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishini tarbiyalash, o'qituvchi tomonidan ularga do'stona munosabatda bo'lishini ta'minlash.
3. **Rivojlantiruvchi:** o'rganilayotgan hodisalarni kundalik hayotda qo'llash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarning intellektual sifatlarini, bilish qiziqishlarini shakllantirish.

Kirish bosqichi (5 daqiqa). O'qituvchi va o'quvchilar bir-birlari bilan salomlashadilar, o'qituvchi elektron jurnalga darsdagi va darsda bo'lmagan o'quvchilarni qayd qiladi.

Mavjud bilimlarni faollashtirish:

O'tgan darsimizda nimani o'rgandik, suv bizning hayotimizda qanday o'rin tutadi? Suvning turli holatlarini kundalik hayotda qaysi jarayonlarda ko'rgansiz?

Tavsiya! 🧠 "Sabab va oqibat"

Xronologiya va faktlarni chuqur o'rganishni talab qiladigan usul bo'lib, sabab va natijani o'rganish fanning asosiy yondashuvlaridan birini tashkil etadi.

Bu fizik qonuniyatdan kelib chiqqan yondashuv bo'lib, har bir bir sabab natijaga olib keladi.

O'tkazilishi:

O'quvchilar kichik guruhlarda biror bir hodisaning, masalan, suvning holatlarini (o'rganilganlarga asoslangan holda) sanab chiqadilar. Boshqa bir guruhda esa hodisaning sabablari sanab chiqiladi va rasmlar, yozuvlar orqali vatmanda fikrlar ifodalanadi.

Guruhlar taqdimotidan so'ng, ma'lumotlar umumlashtirilib, xulosa qilinadi.

🧰 Kerakli jihozlar: vatman, rangli marker va qalamlar, rasmlar, yelim.

Asosiy qism (25 daqiqa).

Tushuntirish uchun material.


Tabiatda **hamma narsa o'zgarib turishini** bilasizmi? Masalan, issiq kunlardan keyin salqin kunlar keladi. Kuzdan keyin qish, qishdan keyin esa bahor boshlanadi.

Tabiatda o'zgarishlar bir kun ichida ham sodir bo'lishi mumkin. Siz bugun tabiatda qanday o'zgarishlarni sezdingiz?

Mazkur savol-javob o'quvchilarda nutqni rivojlantiradi. Tabiat hodisalarining inson hayotiga ta'sirini anglashga zamin yaratiladi.

Tabiatdagi insonga bog'liq bo'lmagan barcha o'zgarishlar **tabiat hodisalari** deb ataladi. Tongda quyosh chiqishi, tundan keyin kun kelishi, havo ilishi, keyin birdan sovib, yomg'ir yoki qor yog'ishi, qushlarning uchib kelishi, daraxtlarning gullashi – bularning har biri tabiat hodisalariga misol bo'ladi.

Darslikning 47-betidagi rasmlarga qarab, qaysi hodisalar jonli tabiatga, qaysilari jonsiz tabiatga tegishli ekanini aniqlang.



Xazonrezgi



Gullarning
ochilishi



Chaqmoq
chaqishi



Qor
yog'ishi



Daraxtlarning
meva tugishi



Tuxumdan palapon
ochib chiqishi


Quvnoq daqiqalar:

Shundan so'ng, o'quvchilarning charchab qolmasligi uchun harakatlanuvchi mashq yoki barmoq/ko'zlar gimnastikasini bajarishingiz mumkin. Ekranga rasmni chiqaring va tushuntiring.



Mustahkamlash qismi:

Darslikning 48-betidagi topshiriqni bajarishni davom ettiramiz.



O'quvchilarni 4 guruhga bo'lib, ularga 4 ta fasl taqsimlanadi. Har bir guruhdan o'ziga berilgan fasldagi o'zgarishlarni aniqlab berish so'raladi. Jamoalar tayyorlagan javoblarini navbat bilan taqdim etadilar. O'quvchilar bir-birlarining javoblarini to'ldirishlari mumkin.